



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-avgust oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 12693,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 11,0 % ga, o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2023-yil yanvar-avgust

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	11 989,1	13 685,2	1696,1
Sharof Rashidov tumani	38 600,3	13 917,6	- 24 682,7
Forish tumani	6 723,2	3 755,2	-2 968,0
Jizzax shahri	19 871,2	19 621,9	- 249,3
Zafarobod tumani	8 078,3	4 767,9	- 3 310,4

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 32,3 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 22,9 % ni va G‘allaorol tumani 22,5 % ni tashkil etdi.

24,0 %


2022- yil

49,1 %

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-avgust oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12422,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-avgust

92,8 %

2023-yil yanvar-avgust

97,9 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni o'rtayuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 54,0 % (22,7 %) ni, o'rtayuqi texnologiyali 16,0 % (23,2 %) va quyi texnologiyalisi - 27,8 % (46,9 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 51,4 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,3 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,0 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,2 % (2022- yilning yanvar –avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	11 415,0	15 319,0	3904,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	39 693,7	6 841,1	-32 852,6
Paxta chigiti, t.	18 030,0	22 937,0	4 907,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	4 979,0	5 069,1	90,1
Paxta linti, t.	788,0	1 366,0	578,0
Trikotaj polotnolar, t.	1 248,0	1 927,0	679,0

2023- yilning yanvar-avgust oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (82,8 % kamaygan), 15,3 ming tonna paxta tolasi (5,0 % ga oshgan), holda ishlab chiqarilib, 22,9 ming tonna paxta chigiti 0,9 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni
17,2 %
Paxta tolasi, t.
105,0 %
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 80,1 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,7 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 133,3 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 92,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 17,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 120,8 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1617,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 882,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 44,3 % ni tashkil etgan.

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 114,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 100,7 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 904,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 75,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 %, fizik hajm indeksi 138,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 412,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 14,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 132,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 411,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 127,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 344,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,6 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 120,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 250,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,2 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 38,3 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	209 177,6	107 782,6	-101 395,0
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	48 221,9	49 407,5	1 185,6

2023-yil yanvar-avgust

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	41 166,1	43 118,8	1 952,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	15 409,2	10 276,8	-5 132,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 4,8 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 19,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7518,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 188,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 59,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-avgust

24,8%

2023-yil
yanvar-avgust

9,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-avgust

75,2%

2023-yil
yanvar-avgust


90,8%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,2 % (2022- yil yanvar-avgust oylarida 24,8 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 25,7 % ni va Zarbdor tumani 8,1 % ni, Zomin tumani 18,0 % ni hamda Paxtakor tumani 20,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (159,0 %), Forish tumanida (111,0 %) hamda Zomin tumanida (110,3 %), qayd etildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2679 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 732 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,3 % i) Jizzax shahriga, 364 tasi (13,6 %) Sharof Rashidov tumaniga, 309 tasi (11,5 %) G'allaorol tumaniga, 248 tasi (9,3 %) Zomin tumaniga va 171 tasi (6,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

